

OLIV TA'LIM TALABALARINING O'QUV FAOLIYATIDAGI MUVAFFAQIYATLARINI TA'MINLASHNING PSIXOLOGIK- PEDAGOGIK OMILLARI

Ziyayeva Shodiyaxon G'ulomjon qizi

Qo'qon shahar 1-son texnikumi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Har bir shaxsning muvaffaqiyatga erishish jarayoniga ma'lum omillar ta'sir qiladi. Masalan, unga bo'lgan ishonch, motivatsiya berish, ta'lim jarayonidagi o'qituvchilarning xatti-harakatlar va hokozolar. Quyidagi maqolada esa talaba-yoshlarimizning muvaffaqiyatga erishish jarayonidagi muayyan omillar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *pedagogik-psixologiya, talabalar muvaffaqiyati, motivatsiya, o'qituvchi, talaba, emotsionallik,*

Pedagogik-psixologiya fanidan ma'lumki, o'rta maktab o'quvchilarni har (biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik) jihatdan oliy maktab ta'limiga tayyorlaydi va ularda umumlashtirish, mavhumlashtirish, sistemalashtirish kabi qobiliyatlarda ko'rinadigan fazilatlar namoyon bo'ladi. Shu bilan birga o'spirinda aqliy, axloqiy, estetik va g'oyaviy-siyosiy jihatdan muayyan darajada o'sish ro'y beradi. Shunga qaramay, ular oldida oliy o'quv yurtida mutaxassislikni egallashga bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi.

Talabalarga mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini o'zi tashkil qilish, o'zini o'zi boshqarish, yangi loyihalarni ishlab chiqish va hokozolar o'rgatiladi.

Talabalarda axloqiy jarayonlarning o'sishi sust amalga oshsada, lekin xulqining eng muhim sifatlari - mustaqillik, tashabbuskorlik, topqirlik, farosatlilik, va hokozolar takomillashib boradi. Shuningdek, ularda ijtimoiy holatlarga, voqelikka, axloqiy qoidalarga qiziqish, ularni amalga oshirishga intilish tobora kuchayadi.

Psixologlarning tadqiqotlari shaxs hayot tajribasini egallashda unda o'zligini anglash vujudga kelishini ko'rsatadi. Shaxsiy hayotning mazmunini anglash, aniq turmush rejalarini tuzishi, kelajak hayot yo'lini belgilash shular jumlasidandir. Talaba asta-sekin mikroguruhning notanish sharoitlariga ko'nikib boradi, o'zini va majburiyatlarini bila boshlaydi, shaxslararo munosabatning yangicha ko'rinishini o'rnatadi. Turmushdagi ijtimoiy rollarni amalda shaxsan sinab ko'rishga intiladi.

Ta'lim va tarbiya jarayonida respublikamizning tarixi, madaniyati, ajdodlarimizdan yetishib chiqqan jahongashta kishilar, mutafakkirlar, ma'rifatparvarlar to'g'risida bilim urug'ini sochish o'quvchilarda va talabalarda g'urur va iftixor tuyg'usini yuzaga keltiradi.

P.Y.Galperin nazariyasi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish jarayoni olti bosqichni boshidan kechirib, ularga:

1. Motivatsiya.
2. Tushuntirish.
3. Moddiy formadagi xatti-harakatlarni bajarish.
4. Baland ovozda xatti-harakatlar va vazifalarni bajarish.
5. Bajariladigan xatti-harakatlarni ichki rejada ovoz chiqarmay bajarish.
6. Faoliyatni fikran bajarish kiradi.

Yuqorida keltirilgan vaziyatlarni nafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi bosqichlar deb aytishimiz mumkin, balki ushbu bosqichlarni to'g'ri qo'llaga o'qituvchining talabalari o'zi tanlagan yo'lidan to'g'ri va oson boradi hamda muvaffaqiyatga erishish jarayoni birmuncha tezroq va qulayroq bo'ladi, nazarimda.

Avvalo, ta'lim jarayonida o'qituvchidan talabalarga motivatsiya berish talab qilinadi. Chunki har bir inson muvaffaqiyatga erishish jarayonida boshqalar tomonidan unga nisbatan ishonch borligini his qilishni xohlaydi. Bu vaziyatda talaba, asosan, ota-onasidan va o'qituvchilaridan ushbu holatni kutadi. Shunday vaziyatda o'qituvchi o'z talabasiga ma'lum miqdorda motivatsiya bera olsa va oldigan qo'ygan maqsadlarini, u qattiq harakat qilsa, amalga oshishiga ishontira olsa, uning talabasi o'zi istaganidan ortiqroq muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritadi.

Qomusiy olim Abu Ali ibn Sinoning fikricha, inson tafakkuri, aqlining kuchi bir necha bosqichdan iborat. Aqliy kuchlar dastlab mutlaq tinch, sokin holatda boladi. Bolalardagi yozishni, o'qishni o'rganishdagi potensial kuchlar shunga misol bo'la oladi. Abu Ali ibn Sino bu kuchlarni moddiy kuchlar deb nomlagan, ya'ni mazkur kuchlarni tashqi motivlar deb tushunsa bo'ladi. Sekin-astalik bilan bu kuchlar harakatga aylanadi, bular mehnat quroli samarasidir, ya'ni mehnat quroli orqali harakatga keladi va namoyon bo'ladi. Bu holatni bola yozishni xohlab turibdiyu, ammo yozish quroli bo'lgan qalamning yo'qligi bilan izohlash mumkin. Bu ikki kuchni ibn Sino ro'yobga chiqishi mumkin bo'lgan kuch deb atagan. Nihoyat, uchinchi kuch esa irodaning yetishmasligi bilan tushuntirib beriladi. Ya'ni shunday holatning kuchi bor, ammo uni ishlatishga, ro'yobga chiqarishga bolada iroda yetishmaydi. Alloma nazarida, shu kabi uch holat bilan aql, bilim olish izohlanadi.

O'qitishning emotsionalligi ham ta'limning muvaffaqiyatligini ta'minlovchi omillardan biridir. Ta'lim berish jarayoni emotsional jarayon. Agar o'quvchilarga berilayotgan axborot ularda hech qanday his-tuyg'u uyg'otmasa, bunday ma'lumotni o'quvchilar yaxshilab esda olib qolmaydilar. O'quvchilarning ijobiy psixik holatlari, ularning muayyan bir paytdagi kechinmalari haqida ham borishi kerak, albatta. Ulardagi quvonchli, optimistik kayfiyat o'quv faoliyatini juda samarali qiladi. O'quvchilar emotsional ruhdagi materialni yaxshiroq o'zlashtirib oladilar.

O'quv maskanlarida qanchalik emotsional bo'lgan adabiyotlardan foydalanilsa, o'quvchilarning ta'lim olish jarayoni biroz yengillashadi va bunday holat ularning muvaffaqiyatli bo'lishiga ham ijobiy ta'sir qiladi.

O'tkazilgan tajribalar hech qanday his-tuyg'u uyg'otmaydigan materialga qaraganda, emotsional ruhdagi materialni o'quvchilar yaxshiroq eslab qolishlarini ko'rsatadi. O'qituvchi o'quv jarayonining emotsional tomoni haqida ham qayg'urishi kerak. Bu muammo juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, birinchidan, ta'limning mazmuni nihoyatda murakkablashib, hajmi esa g'oyat kattalashib ketgan. Uning muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga erishish uchun o'quvchilarning o'quv faoliyatini kuchaytirish lozim. Ijobiy tuyg'ular o'quv mehnatining samaradorligiga kuchli ta'sir etadi. Hafsala bilan bajarilgan faoliyat yuzasidan beg'araz munozara paydo boladi, bahslashiladi, befarq qaralgan yoki salbiy munosabatda bo'lingan ishga esa, hech qanday hafsala bo'lmaydi. Jamiyatimizdagi mehnat – haqiqiy ijod, quvonch manbayi. O'qituvchi o'quvchilarida o'quv mehnatiga ijobiy munosabatni uyg'otib, mehnatning haqiqiy ijodga, quvonch manbayiga aylanishiga ko'maklashishi kerak.

Inson muvaffaqiyatga erishish uchun unda ma'lum bir maqsad, maqsadga erishish uchun harakat va o'zgaralar tomonidan unga ta'sir qiladigan ma'lum bir jihatlari kerak bo'ladi. Ana shu jihatlarni biz otalarimizdan va o'qituvchilarimizdan olishimiz mumkin. Har qanday ustoz o'z o'quvchisini yuksak marralarni egallashini va undan doimo faxrlanib yurishni xohlaydi. Shunday ekan, ustoz o'zining har bir o'quvchisining kelajakdagi rejalariga va ularni amalga oshirish jarayonlariga katta e'tibor berish kerak va har qanday holatda ularni qo'llab-quvvatlashi, o'z oldiga qo'ygan maqsadkariga erishishi uchun oson yo'llarni izlashi, umumiy qilib aytganda unga har jihatdan psixologik va pedagogik yordamini ayamasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Umarov B. M. Psixologiya. Toshkent. Voris-nashriyot 2012.
2. Z. T. Nishanova, N. G. Kamilova, D. U. Abdullayeva, M. X. Xolnazarova Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. Toshkent. O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2018